

Asosiy kapitalga investitsiyalar 2019 yil yanvar-mart oylarida boshqarmasi

Raqamlar:




**Asosiy kapitalaga
kiritilgan
investitsiyalar 1529,2
mlrd. so'm**

O'sish sur'ati 50,0%

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1529,2 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 50,0 % tashkil etdi.

Moliyalashtirishning manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi chet el investiyalari va kreditlari – 744,2 mlrd. so'm yoki 48,7 %, korxonalarning va aholining o'z hisobidan esa 470,1 mlrd. so'm, yoki 30,7% jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hisobiga to'g'ri keladi.


Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi



2019 yil yanvar-mart oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtrish manbalari hisobidan 228,7 mlrd. so'm yoki 15,0 foiz, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa 1300,5 mlrd. so'm yoki 85,0 foizni tashkil qiladi.

Asosoiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumi hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, %

Markazlashgan investitsiyalar




■ Byudjet mablag'lari

■ Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari

■ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi

Markazlashmagan investitsiyalar



■ To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar

■ Korxonalarining o'z mablag'lari

■ Aholi mablag'lari

■ Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, umumiylajmiy hajmdagi ulushi %



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi bo'yicha 869,5 mlrd. so'm yoki 56,9 % qurilish-montaj ishlariiga o'zlashtirilgan bo'lisa, mashina, uskunalar va jixozlarni xarid qilishga 370,0 mlrd. so'm yoki 24,2% va boshqa xarajatlarga 289,7 mlrd. so'm yoki 18,9% investitsiyalar o'zlashtirilgan.


- boshqa xarajatlar
- mashina, uskunalar va jixozlarni xarid qilish
- qurilish-montaj ishlari

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan foizda



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi bo'yicha umumiylajmidan 795,6 mlrd. so'm yoki 52,0 foiz – yangi qurilishga, 387,0 mlrd. so'm yoki 25,3 foiz – kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishga va 346,6 mlrd. so'm yoki 22,7 foiz – boshqa yunalishlarga to'g'ri keladi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari, mlrd. so'm



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 487,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 31,9 foizi o'zlashtirilgan. Shundan 485,2 mlrd. so'm, yoki investitsiyalarning 31,7 foizi tabiy gaz qazib chiqarish uchun yo'naltirilgan.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga – 14,4%, uy-joy qurilishiga – 14,0%, ishlab chiqaradigan sanoatiga – 6,3%, suv ta'minotiga - 3,9%, qurilishga – 3,4%, ulgurji va chakana savdoga – 3,3%, ta'llimga – 1,9%, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga – 1,4%, tashish va saqlashga –1,7 % va boshqa faoliyat turlariga – 17,8 % to'g'ri keladi.

Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirirlishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.



Xorijiy investitsiya va kreditlari


2019 yil yanvar-mart oylarida 744,2 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy xajmining 48,7% xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 37,6% tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi 598,7 mlrd. so'mni tashkil qilgan(o'sish sur'ati – 30,8%).

■ 2018 yil yanvar-mart


■ 2019 yil yanvar-mart

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning asosiy hajmi tog'-kon sanoatiga 450,2 mlrd. so'm, suv ta'minotiga 57,6 mlrd.so'm, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga 61,5 mlrd. so'm, ishlab chiqaradigan sanoatida 3,4 mlrd.so'm to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalari va kreditlari, mlrd. so'm




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga, tumanlar kesimida

	Aholi jon boshiga, ming so'mda	2018 yil yanvar-martga nisbatan foizda
Jami viloyat	805,9	49,2
Buxoro sh	1048,9	63,2
Kogon sh	1219,1	790,2
Olot	2902,7	14,2
Buxoro	380,7	202,7
Vobkent	99,1	106,6
G'ijduvon	287,0	84,9
Kogon	959,4	183,8
Qorako'l	112,1	119,4
Qorovulbozor	1215,5	98,6
Peshku	341,4	156,6
Romitan	3485,6	158,9
Jondor	250,3	48,9
Shofirkon	213,3	861,8

Ob'yektlarni ishga tushirish



2019 yilning yanvar-mart oylarida ijtimoiy sohada jami umumiylar maydoni 191,0 ming kv.m, bo'lgan 844 ta turar joy obekti yangi qurilib ishga tushirildi, ulardan umumiylar maydoni 132,3 ming kv.m. bo'lgan 572 ta turar joylar qishloq joylarda joylashgan.

Kommunal xo'jaligi sohasida 61,7 km. suv tarmoqlari (hammasi qishloq joylarda) ishga tushirilidi.